

“HELLADOS” ASARIDA VATANGA BO‘LGAN MUHABBATNING AKS ETTIRILISHI

Saydahmatova Mahliyo, O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi
mahliyosaydaxmatova@gmail.com

Saydulloyeva Shoxsanam, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
assistenti
shoxsanamsaydulloyeva94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Hellados” asaridagi qahramonlarning ichki kechinmalari, Yangulining Vatan haqidagi tasavvuri va Vatanga bo‘lgan muhabbatni aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan madhi, Yanguli, Hellados, muqaddas tuyg‘u, qahramon, asar pafosi.

Badiiy asarni o‘qish va uni uqish insonning ichki kechinmalarini anglashga yordam beradi. Asar bilan asarning farqi bor. Ayrim asarlar borki, undagi voqealar kitobda emas, haqiqiy hayotda yuz berayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Hattoki, asarning qahramoni his qilayotgan tuyg‘ular va ular bilan sodir bo‘layotgan vaziyatlarga biz ham tushib qolamiz. Shunday asarlar borki, uni o‘qigan inson asar qahramonlari bilan birga yashaydi, birga kuladi, birga yig‘laydi. Bu kabi hissiyotlarni, voqelarni yorqin tasvirlab bera oladigan, asar pafosini his qildira oladigan yozuvchilar sanoqli.

Dunyodagi muqaddas tuyg‘ular ota-onaga va Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usidir. Vatanga bo‘lgan muhabbatni har kim o‘ziga yarasha tasavvur qiladi. Shoirlar Vatanga bo‘lgan muhabbatlarini o‘z she’rlari bilan yozuvchilar esa o‘zlarining nasriy asarlari bilan Vatanni madh etadilar.

Men o‘qigan badiiy asarlar, xususan, hikoyalarim orasida “Hellados” hikoyasi vatanni madh etadigan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Bu hikoyani vatanni sevishga chorlovchi asar deb aystsak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Vatanni madh etgan ko‘plab she’r, ruboiy yoki g‘azallardan farqli o‘laroq ushbu asarda vatanni sevish, uni qadrlash, uning har bir qarichini asrab-avaylash asarning negizini tashkil etgan. Hikoyani kitobxon qalbini larzaga soladigan, insoniy iztirob bilan yuzma-yuz qolgan, vatanga muhabbat kabi umuminsoniy g‘oyalar mujassamlashgan asar deb baralla ayta olamiz.

Nodar Vladimirovich Dumbadze 1928-yilda Gruziya poytaxti Tibilisi shahrida dunyoga kelgan. Yozuvchining ko‘plab asarlarida ikkinchi jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlarining mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o‘xshamagan taqdir

egalari obrazida yorqin aks ettirilgan. Kichik qishloqdag'i kichik odamlarning katta tashvishi va ularning hayot tarzi rangin bo'yqlar bilan chizilgan.

Gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening asarlarida hozirgi kunda yo'qolib borayotgan odamiylik, insonparvarlik, oqibat, vijdon, fidoyilik kabi insoniy histuyg'ular yetakchi o'rinda turadi. Aynan shu xislatlar tarannum etilgan "Abadiyat qonuni" romani esa nafaqat gruziya, balki bir necha qator davlatlar kitobxonlarining ko'nglidan va kitob javonlaridan joy olib ulgurgan asarlari sirasiga kiradi. Adibning "Hellados" hikoyasidan tashqari "Kukaracha qissasi", "Oq bayroqlar" romani va boshqa ko'plab asarlari ma'lum va mashhur. Adib asarlari mohir tarjimon Nizom Komil tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, kitobxonlarga taqdim etilgan. Aynan "Hellados" hikoyasi ham kitobxonlar tomonidan izlab, topib o'qiladigan asardir.

Adibning bosh qahramoni – Yanguli. Asar ham aynan Yangulining ta'rifi bilan boshlanadi. Bu jarayonni yozuvchi shunday mahorat bilan ifodalaganki, u kitobxonga Yangulining qiyofasini ko'z oldimizda gavdalantira olgan. Yozuvchi asarda o'smir yoshdagi bolalarning xarakterlarini ochib berishda o'xshatish, sifatlashlardan o'z o'rnida foydalangan. Hikoyada Yanguli Venetsian ko'chasida, Chalbash daryosining bo'yida yashashi, onasidan erta yetim qolgani, otasi va bor-yo'q davlati bir parcha tomorqa, bittagina sigir va eshakdan iborat ekanligi aytildi. To'g'ri, Yanguli ko'chabezori, savodsiz bir bola bo'lishi mumkin, shunga qaramay u insoniylikdan yiroq emas, buni uning Jamolning onasi vafot etganini xolavachchasi Kokadan bilganidan so'ng uni haqoratlamay qo'yganidan ham bilishimiz mumkin.

E'tiborimizni qaratishimiz kerak bo'lgan jihat shundaki, Yanguli hech qayerda o'qimagan, shunga qaramay, u ba'zi bir o'qigan insonlardan ko'ra haqiqiy ma'noda vatanini sevgan, uni kimgadir berib qo'yishni xohlamagan va o'zi ham vatanini tashlab keta olmagan qahramon sifatida gavdalanadi.

Uning Vatan haqidagi tushunchasini quyidagi jumlalardan ham bilib olish mumkin:

... Men ko'chada, Venetsian ko'chasida katta bo'ldim... Mening vatanim, mening Elladam bu — Suxumi, ko'cha, Chalbash; bu — Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko'pri...

Uning vatani – do'stlari, sevimli ko'chasi, Qora dengizi...

U "Hellados" ya'ni "Vatan" degan yozuvning insonlar ko'zi bilan ko'radigan oddiy naqsh ekanligi, haqiqiy Vatan asl yurakda ekanligini aytadi:

— Bu nima bo'lmasa? — Men Yangulining ko'kragini ochib, baland ovozda o'qidim:

— Hellados.

— Bu — naqsh, Jamol. Vatan — ichkariroqda, naqd yurakning o'zi-da! — Yanguli qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

Men bu hikoyani ilk bor o‘qiganimda Yanguli men uchun ko‘cha bezori, mushtumzo‘r bola sifatida ko‘z oldimda gavdalangan edi, ammo hikoyani o‘qishda davom etar ekanmiz uning qanchalik jasur, olıyanob ekanligi, hikoya yakunida esa uning o‘z vatanini ya’ni vatan deb bilgani Venetsian ko‘chasi, Chalbash daryosini qanchalik yaxshi ko‘rishi va vatanidan uzoqda bo‘lish u uchun qanchalik og‘ir bo‘lishi, hatto vatanidan ketmaslik uchun otasiga qarshi chiqib kaltak yeishi, oxir-oqibatda esa o‘z jonini vatani deb bilgani Suxumi uchun qurban qiladi.

Hikoyada vatanni sevish faqatgina Yanguli timsolida berilmagan. Hikoya intihosida Suxumida yashayotgan yunonlarning o‘z yurtlariga, Elladaga qaytishi ham jumladan, Yangulining otasi Xrista Aleksandridi ham o‘z yurtiga qaytish uchun o‘g‘lini majburlashi ham bunda yaqqol namoyon bo‘lgan.

Asarning kulminatsion nuqtasidagi hissiyotlar junbishi insonni asarning davomi va uning tugallanishi qanday bo‘lishi, ya’ni asar u kutgandek tugaydimi yoki aksincha bo‘lishi haqidagi fikrlar qiziqtiradi. Kutilmagan vaziyatining ro‘y berishi asarning mavqeyini oshiradi. Hayot ham har doim biz o‘ylagandek bir tekis yoki nimaniki o‘ylasak o‘sha narsani bajara olmasligimiz mumkinligini asarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Asar qahramonlarining ichki kechinmalarini faqat bir tomondan olib tahlil qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Undagi har bir epizod o‘zining ichki dunyosiga, o‘z tashvish va xotiralariga ega. Asarda ifodalangan Nina xola ham asosiy obraz hisoblanmasa-da, faqatgina asarning kichik qismida tasvirlangan bo‘lsa-da, uning ham o‘ziga yarasha dardlari va ruhiyati ochib berilganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu asar har birimizni vatanni sevishga, qalbimizdagi ezgu tuyg‘ularni yana bir bor alangalatishga qaratilgan bir asardir. Agar Yangulini hozirgi kun yoshlari bilan taqqoslaysidan bo‘lsak, ular orasidagi katta farqni ko‘rishimiz mumkin. Albatta, besh qo‘l barobar emas, lekin hozirgi kunda ko‘pchilik yoshlar, ayniqsa, yigitlar o‘z yurtida ishlab pul topishdan ko‘ra chet elda ishlab pul topishni afzal ko‘rmoqda yokida qaysidir davlat ko‘proq haq to‘lashni taklif qilishsa, hech ikkilanmay jo‘nab ketishmoqda. Axir bejizga aytishmagan: “Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u tarozu”. Holbuki, ana shu kuchini, bilim va zakovatini o‘z yurtining rivojlanishi va ravnaq topishi uchun sarf etishsa, vatan rivoji uchun o‘z hissalarini oz bo‘lsa-da qo‘shgan bo‘lishardi. O‘ylaymanki, asar qahramoni Yanguliga shunday taklif berilganda u bu taklifni rad etgan bo‘lar edi. To‘g‘ri, inson bir joyda turib qolmasligi kerak, albatta. Ammo qaysidir davlatga ketgan kishi tajribalar oshirib bo‘lgach, o‘z yurtiga qaytishi va yurti rivojiga hissa qo‘shishi kerak, deb bilaman. Chunki har bir insonning ona yurti o‘z onasi kabi muqaddas. Shunday ekan, har birimiz yuragimizning tub-tubidan Yanguli kabi Vatanimizni qadrlashimiz, uni begonalar qo‘liga berib qo‘ymasligimiz, vaqt kelganda vatan uchun jonimizni berishqa tayyor turmog‘imiz lozim!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nodar Dumbadze. Abadiyat qonuni. –T.: «Sharq», 2004.
2. Bayram Ali. Vatan ichkarida bo‘ladi yoxud bir hikoya taassurotlari, maqola, 2017 yil
3. www.ziyouz.uz